



O'ZKIMYOSANOAT
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2013-yil 15-yanvar

«Ammofos-Maxam» AJ



Umarov Iskandar Gayratovich

“Ammofos-Maxam” AJ boshqaruvi raisi

Qabulxona: [+998781504141](tel:+998781504141)

Devonxona: [+998781507284](tel:+998781507284)

Matbuot xizmati: [+998559000111](tel:+998559000111)

Ishonch telefoni: [+998559000111](tel:+998559000111)

Elektron pochta manzili: info@ammofos-maxam.uz

EXAT pochta manzili: ammofos@exat.uz

Manzil: [110100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent viloyati, Olmaliq shahri](#)

AMM  FOS
MA X AM





Marketingga oid ma'lumot

Ishlab chiqariladigan mahsulotlar va ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy turlari	Ammofos, ammoniy sulfat fosfat, suprefos, ammoniy sulfati, DVP, elektrolit, oltin gugurt kislotasi, ozuqa fosfati (chorvachilik, parrandachilik va baliqchilik sanoati uchun), trinatriyfosfat va boshqalar
Ishlab chiqarishda zarur bo'lgan asosiy xom-ashyo	Fosfor uni, oltin gugurt, ammiak
Asosiy mahalliy iste'molchilar	Qishloq xo'jaligi, kimyo va sanoatning boshqa tarmoq korxonalarini
Asosiy chet ellik iste'molchilar	Tojikiston, Afg'oniston, Xitoy

«Ammofos-Maxam» AJ - O'zbekiston Respublikasining Qizilqum fosforitlaridan murakkab azot-fosforli mineral o'g'itlar ishlab chiqaruvchi yirik korxonalaridan biridir. Ushbu korxonani «O'zkimyosanoat» aksiyadorlik jamiyati tarkibiga kiradi va mamlakatning kimyo sanoati sohasidagi yetakchi ishlab chiqaruvchilardan hisoblanadi. Korxonani sanoat maydoni Olmaliq shahrida joylashgan. Korxonaning umumiy maydoni 522,5 gektarni tashkil etadi. «Ammofos-Maxam» AJning geografik joylashuvi va qulay transport tarmog'i, ishlab chiqarishning samarali va raqobatbardosh bo'lishini ta'minlaydi. Ushbu korxonaning mahsulotlari nafaqat O'zbekistonda, balki xalqaro bozorda ham talabgor bo'lib, mamlakatning qishloq xo'jaligi va kimyo sanoatiga katta hissa qo'shmoqda. 1969-yil 18-dekabrda ekstraksiya fosfor kislotasi (EFK) va ammosfos ishlab chiqarishning birinchi bosqichi ishga tushirildi. Jahon amaliyotida ilk marotaba 24,5% fosfor angidridini (P₂O₅) o'z ichiga olgan Qoratog' fosforitlaridan do nadorlangan ammosfos ishlab chiqarish texnologiyasi o'zlashtirildi. 1973-yilda ikkinchi navbat, 1978-yilda esa ishlab chiqarishning uchinchi navbati ishga tushirildi. 1980-yilda korxonaning ikkinchi navbatida rekonstruksiya ishlari amalga oshirildi. 1992-yil fevral oyida Olmaliq kimyo zavodi Olmaliq «Ammofos» ishlab chiqarish birlashmasiga, 2001-yil avgust oyida Ochiq Aksiyadorlik Jamiyati - «Ammofos» OAJga o'zgartirildi. 2008-yilda «MAXAM International S.L.U» xorijiy kompaniyasi korxonani aksiyalarining 49 foizini sotib oldi. Bu o'zgarish natijasida korxonani nomi «Ammofos-Maxam» OAJga o'zgartirildi, u «Ammofos» OAJning huquqiy vorisi bo'lib, bu haqda Toshkent viloyati hokimligi Adliya boshqarmasining 2009-yil 19-fevraldagi 322-sonli guvohnomasi berilgan. 2014-yilda «Ammofos-Maxam» OAJ «Ammofos-Maxam» AJ deb qayta nomlandi. Qayta ro'yxatdan o'tish Toshkent viloyati Adliya boshqarmasi tomonidan amalga oshirildi va bu haqida 2014-yil 22-oktabrdagi 159-sonli guvohnoma berilgan.

source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/company/enterprise/manufacture/ammofos-maxam>